



GOETHE-ZERTIFIKAT B1

DURCHFÜHRUNGSBESTIMMUNGEN IMTIHON O'TKAZISH QOIDALARI

Stand: 1. September 2025
2025-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra

Zertifiziert durch
Sertifikat bergan tashkilot



**GOETHE
INSTITUT**

Sprache. Kultur. Deutschland.

Durchführungsbestimmungen zur Prüfung GOETHE-ZERTIFIKAT B1 für Erwachsene und Jugendliche

Stand: 1. September 2025

Die *Durchführungsbestimmungen* zur Prüfung GOETHE-ZERTIFIKAT B1 für Erwachsene und Jugendliche sind Bestandteil der *Prüfungsordnung des Goethe-Instituts* in ihrer jeweils aktuellen Fassung.

Die *Durchführungsbestimmungen* beschreiben die Bestandteile der einzelnen Prüfungen und regeln die prüfungsspezifischen Bedingungen der Prüfungsorganisation, des Ablaufs und der Bewertung sowie die Berechnung der Prüfungsergebnisse.

Das GOETHE-ZERTIFIKAT B1 wurde gemeinsam entwickelt vom Goethe-Institut, dem ÖSD und dem Bereich Mehrsprachigkeitsforschung und Fremdsprachendidaktik/Deutsch als Fremdsprache der Universität Fribourg/Schweiz. Die Prüfung wird an den in § 2 der *Prüfungsordnung* genannten Prüfungszentren weltweit nach einheitlichen Kriterien durchgeführt und bewertet.

Die Prüfung dokumentiert die dritte Stufe – B1 – der im *Gemeinsamen europäischen Referenzrahmen für Sprachen (GER)* beschriebenen sechsstufigen Kompetenzskala und damit die Fähigkeit zur selbstständigen Sprachverwendung.

§ 1 Prüfungsbeschreibung

Siehe hierzu auch *Prüfungsordnung* § 1.

1.1 Bestandteile der Prüfung

Die Prüfung GOETHE-ZERTIFIKAT B1 für Erwachsene und Jugendliche besteht aus vier Modulen, die einzeln oder in Kombination abgelegt werden können:

- drei schriftliche Module als Gruppenprüfung: LESEN, HÖREN, SCHREIBEN,
- ein mündliches Modul als Paar- oder (in Ausnahmefällen) Einzelprüfung: SPRECHEN.

Imtihon o'tkazish qoidalari katta yoshdagilar va o'smir yoshdagilar uchun GOETHE-ZERTIFIKAT B1 imtihoni

2025-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra

Katta yoshdagilar va o'smir yoshdagilar uchun GOETHE-ZERTIFIKAT B1 *imtihonini o'tkazish qoidalari* Gyote-Institutining *Imtihon o'tkazish tartibining* amaldagi asosiy ajralmas qismi hisoblanadi.

Imtihon o'tkazish qoidalari o'tkaziladigan imtihonlarning tarkibiy qismlarini tavsiflaydi va har bir imtihonni tashkil etish, imtihon jarayoni va baholash, shuningdek imtihon natijalarini hisoblashning o'ziga xos shartlarini tartibga soladi.

GOETHE-ZERTIFIKAT B1 imtihoni Gyote-Instituti, ÖSD (Avstriya til bilish diplomi) va Shvetsariyadagi Fribourg universitetining ko'p tillilik tadqiqoti va chet tili didaktikasi/nemis tili chet tili sifatida bo'limi tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan. Imtihon *Imtihon o'tkazish tartibining* § 2-bandida keltirilgan butun dunyo bo'ylab joylashgan imtihon markazlarida yagona mezonlarga muvofiq o'tkaziladi va baholanadi.

Imtihon, *Umumyevropa til bilish kompetensiyalarining* (GER) olti darajali shkalasi bo'yicha uchinchi darajaga – B1 ga mos keladi va nemis tilida mustaqil muloqot qila olish malakasi mavjudligini tasdiqlaydi.

§ 1 Imtihon tavsifi

Imtihon o'tkazish tartibining 1-§.ga e'tibor qiling.

1.1 Imtihonning tarkibiy qismi

Katta yoshdagilar va o'smir yoshdagilar uchun GOETHE-ZERTIFIKAT B1 imtihoni to'rtta moduldan iborat bo'lib, ularning har birini alohida yoki birgalikda topshirish mumkin:

- uchta yozma modul guruh imtihoni sifatida o'tkaziladi: O'QISH, TINGLASH, va YOZMA NUTQ,
- og'zaki modul juftlikda yoki yakka tartibda (istisno tarzida) o'tkaziladi: OG'ZAKI NUTQ.

1.2 Prüfungsmaterialien

Die Prüfungsmaterialien bestehen aus *Kandidatenblättern* mit Antwortbögen (*Lesen, Hören, Schreiben*), *Prüferblättern* mit den Bögen *Schreiben – Bewertung, Sprechen – Bewertung, Schreiben – Ergebnis, Sprechen – Ergebnis* sowie einer Audiodatei.

Die *Kandidatenblätter* enthalten die Aufgaben für die Prüfungsteilnehmenden:

- Texte und Aufgaben zum Modul LESEN (Teil 1–5);
- Aufgaben zum Modul HÖREN (Teil 1–4);
- Aufgaben zum Modul SCHREIBEN (Teil 1–3);
- Aufgaben zum Modul SPRECHEN (Teil 1–3, für Teil 2 jeweils zwei Themen zur Wahl).

In die Antwortbögen tragen die Prüfungsteilnehmenden ihre Lösungen bzw. ihren Text ein. Für die Module SCHREIBEN und SPRECHEN wird den Prüfungsteilnehmenden vom Prüfungszentrum gestempeltes Konzeptpapier zur Verfügung gestellt.

Die *Prüferblätter* enthalten für

- das Modul LESEN die Lösungen,
- das Modul HÖREN die Transkriptionen der Hörtexte und die Lösungen,
- die Module SCHREIBEN und SPRECHEN die Kriterien zur Bewertung der Leistungen,
- das Modul SCHREIBEN Hinweise zur Durchführung und Bewertung sowie pro Aufgabe jeweils zwei Leistungsbeispiele für das Niveau B1 und die Bewertungskriterien,
- das Modul SPRECHEN Hinweise zur Gesprächsführung und Moderation sowie die Bewertungskriterien.

In die Antwortbögen *Lesen* und *Hören* bzw. in die Bögen *Schreiben – Bewertung* und *Sprechen – Bewertung* tragen die Prüfenden ihre Bewertung ein. Die Ergebnisse werden jeweils auf die Bögen *Schreiben – Ergebnis* und *Sprechen – Ergebnis* übertragen.

Die Audiodatei enthält die Texte zum Modul HÖREN sowie alle Anweisungen und Informationen.

1.2 Imtihon materiallari

Imtihon materiallari *Imtihon topshiruvchining to'plami* va *Javoblar varaqasi* (*O'qish, Tinglash va Yozma nutq* bo'yicha), shuningdek, *Imtihon oluvchining Yozma va Og'zaki nutq bo'yicha baholash va natijalarni qayd etish varaqalari*, hamda bitta audiofayl ni o'z ichiga oladi.

Imtihon topshiruvchining to'plami imtihon modullari bo'yicha topshiriqlarni oz ichiga oladi:

- O'QISH moduli matnlari va topshiriqlari (1-5 qismlar)
- TINGLASH moduli topshiriqlari (1-4 qismlar)
- YOZMA NUTQ moduli topshiriqlari (1- 3 qismlar);
- OG'ZAKI NUTQ moduli topshiriqlari (1- 3-qismlar, 2-qismda tanlov uchun 2ta mavzu tavsiy etiladi).

Javoblar varaqasiga imtihon topshiruvchilar o'z javoblarini, matnlarini yozib boradilar. YOZMA va OG'ZAKI NUTQ modullari uchun imtihon topshiruvchilarga imtihon markazi tomonidan qoralama varaqalar muhrlangan holda tarqatiladi.

Imtihon oluvchining to'plami quyidagilarni o'z ichiga oladi

- O'QISH modulining to'g'ri javoblari;
- TINGLASH moduli uchun audiomatnlarning transkripsiyalari va to'g'ri javoblar;
- YOZMA va OG'ZAKI NUTQ modullari uchun baholash mezonlari;
- YOZMA NUTQ modulini o'tkazish va natijalarni baholash bo'yicha ko'rsatmalar, shuningdek, topshiriqlarni bajarish uchun kamida ikkitadan B1 darajadagi misollar, hamda, baholash mezonlari;
- OG'ZAKI NUTQ modulida suhbat olib borish va moderatlik qilish uchun ko'rsatmalar, hamda, baholash mezonlari.

O'qish, va Tinglash modullarining *Javoblar varaqasiga*, hamda *Yozma nutq - baholash* va *Og'zaki nutq - baholash* qaydnoma shakllariga imtihon oluvchilar baholarni kiritiladilar. Shuningdek, *Yozma nutq - natija* va *Og'zaki nutq - natija* qaydnomalariga ham baholar kiritiladi.

Audiomaterial TINGLASH moduli audiomatnlarini, hamda, barcha ko'rsatmalar va ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

1.3 Module

Die Materialien liegen als vier Module vor. Die Module können einzeln oder in Kombination abgelegt werden.

1.4 Zeitliche Organisation

Bei Ablegen aller vier Module an einem Prüfungstermin finden die schriftlichen Module als Gruppenprüfung in der Regel vor dem mündlichen Modul statt.

Die schriftlichen Module dauern ohne Pausen insgesamt circa 165 Minuten:

| Modul | Dauer |
|-----------|-----------------|
| LESEN | 65 Minuten |
| HÖREN | ca. 40 Minuten |
| SCHREIBEN | 60 Minuten |
| Gesamt | ca. 165 Minuten |

Das Modul SPRECHEN wird in der Regel als Paarprüfung durchgeführt, in Ausnahmefällen ist auch eine Einzelprüfung möglich. Eine Paarprüfung dauert circa 15 Minuten, eine Einzelprüfung dauert circa 10 Minuten. Zur Vorbereitung auf die mündliche Prüfung erhalten die Teilnehmenden sowohl für die Paar- als auch für die Einzelprüfung 15 Minuten Zeit.

Für Prüfungsteilnehmende mit spezifischem Bedarf können die angegebenen Zeiten verlängert werden. Einzelheiten sind in den *Ergänzungen zu den Durchführungsbestimmungen: Prüfungsteilnehmende mit spezifischem Bedarf* geregelt.

1.5 Protokoll über die Durchführung der Prüfung

Über die Durchführung der Prüfung wird ein Protokoll geführt, das besondere Vorkommnisse während der Prüfung festhält und mit den Prüfungsergebnissen archiviert wird.

1.3 Imtihon modullari

Materiallar to'rtta modul shaklida taqdim etiladi. Imtihonning barcha modullari alohida yoki kombinatsiyalangan holda topshirilishi mumkin.

1.4 Vaqt taqsimoti

Agar barcha to'rtta modul bitta imtihon sanasida topshirilsa, yozma modullar, odatda, guruh imtihoni sifatida, og'zaki moduldan oldin topshiriladi.

Yozma imtihon tanaffuslarsiz jami 165 daqiqa davom etadi:

| Imtihon moduli | Davomiyligi |
|----------------|-----------------|
| O'QISH | 65 daqiqa |
| TINGLASH | 40 daqiqagacha |
| YOZMA NUTQ | 60 daqiqa |
| Jami | 165 daqiqagacha |

Imtihonning OG'ZAKI NUTQ moduli odatda ikki kishilik imtihon shaklida amalga oshiriladi, istisno hollarda, yakka tartibda imtihon ham o'tkazilishi mumkin. Ikki kishilik imtihonning davomiyligi 15 daqiqagacha, yakka tartibdagi imtihon esa 10 daqiqagacha. Topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish vaqti ikkala holatda ham bir hil - 15 daqiqa.

Imkoniyati cheklangan imtihon topshiruvchilar uchun imtihon vaqti uzaytirilishi mumkin.
Batafsil ma'lumot uchun: *Imtihon o'tkazish qoidalariga qo'shimcha: imkoniyati cheklangan imtihon topshiruvchilar*.

1.5 Imtihon o'tkazish bayonnomasi

Imtihon o'tkazilishi yuzasidan bayonnoma tuziladi va unga imtihon jarayonida sodir bo'lgan maxsus holatlar kiritib boriladi. Bayonnoma imtihon natijalari qaydnomalari bilan birga saqlanadi.

§ 2 Die schriftlichen Module LESEN, HÖREN und SCHREIBEN

Werden die drei schriftlichen Module an einem Prüfungstermin angeboten, wird folgende Reihenfolge empfohlen: LESEN – HÖREN – SCHREIBEN. Aus organisatorischen Gründen kann diese Reihenfolge vom jeweiligen Prüfungszentrum geändert werden.

Zwischen jedem dieser Module ist eine Pause von mindestens 15 Minuten vorzusehen.

2.1 Vorbereitung

Vor dem Prüfungstermin bereitet der/die Prüfungsverantwortliche unter Beachtung der Geheimhaltung die Prüfungsmaterialien vor. Dazu gehört auch eine inhaltliche Überprüfung inklusive der Audiodatei sowie deren Funktionalität.

2.2 Ablauf

Vor Beginn des jeweiligen Moduls weisen sich alle Teilnehmenden aus. Die Aufsichtsperson gibt danach alle notwendigen organisatorischen Hinweise.

Vor Beginn der jeweiligen Module werden die entsprechenden *Kandidatenblätter* und Antwortbögen sowie bei Bedarf gestempeltes Konzeptpapier ausgegeben.

Die Teilnehmenden tragen alle erforderlichen Daten auf Antwortbögen und Konzeptpapier ein; erst dann beginnt die eigentliche Prüfungszeit.

Die *Kandidatenblätter* zum jeweiligen Modul werden ohne Kommentar ausgegeben; alle Aufgabenstellungen sind auf den *Kandidatenblättern* erklärt.

Am Ende des jeweiligen Moduls werden alle Unterlagen, auch das Konzeptpapier, eingesammelt. Beginn und Ende der Prüfungszeit werden jeweils in geeigneter Form von der Aufsichtsperson mitgeteilt.

§ 2 Yozma imtihon modullari: OQISH; TINGLASH va YOZMA NUTQ

Agar yozma imtihonning uchta moduli bitta imtihon sanasida o'tkazilsa, quyidagi tartibda o'tkazish tavsiya etiladi: O'QISH - TINGLASH – YOZMA NUTQ. Tashkiliy sabablarga ko'ra ushbu tartib imtihon markazi tomonidan o'zgartirilishi mumkin

Yozma imtihon modullari orasida kamida 15 daqiqa tanaffus ko'zda tutilgan.

2.1 Tayyorgarlik

Imtihon boshlanishidan avval imtihonni o'tkazish uchun mas'ul shaxs maxfiylik qoidalariga rioya qilgan holda imtihon materiallarini tayyorlaydi. Tayyorgarlik jarayoniga materiallarning mazmunini, shuningdek, audiomaterial va uning yaroqliligini yana bir bor tekshirish ham kiradi.

2.2 Imtihon jarayoni

Imtihon boshlanishidan avval barcha ishtirokchilar o'z shaxsini tasdiqlashlari lozim. Imtihon nazoratchisi shundan so'ng tashkiliy masalalar bo'yicha zaruriy ko'rsatmalarni beradi.

Har bir imtihon moduli boshlanishidan oldin *Imtihon topshiruvchining to'plami* va *Javoblar varaqasi*, hamda, muhrlangan qoralama varaqalar (agar ehtiyoj bo'lsa) tarqatiladi. Imtihon topshiruvchilar kerakli ma'lumotlarni *Javoblar varaqasiga* va qoralama varaqalarga kiritadilar va shundan so'ng imtihonning asosiy vaqti boshlanadi.

Imtihon topshiruvchining to'plami tegishli imtihon moduli boshlanishidan oldin hech qanday izohlarsiz tarqatiladi; imtihon topshiriqlari bo'yicha barcha zaruriy izohlar *imtihon topshiruvchining to'plamida* berilgan.

Imtihon moduli yakunida barcha imtihon materiallari, shuningdek qoralama varaqalar ham yig'iladi. Imtihonning boshlanish va tugash vaqti imtihon nazoratchisi tomonidan kerakli shaklda e'lon qilinadi.

Für das Ablegen der drei schriftlichen Module an einem Prüfungstermin gilt folgender Ablauf:

1. Die Prüfung beginnt in der Regel mit dem Modul LESEN. Die Teilnehmenden markieren ihre Lösungen auf den *Kandidatenblättern* und übertragen sie am Ende auf den Antwortbogen *Lesen*. Für das Übertragen ihrer Lösungen planen die Teilnehmenden circa 5 Minuten innerhalb der Prüfungszeit ein.
2. Nach einer Pause wird in der Regel das Modul HÖREN durchgeführt. Die Audiodatei wird von der Aufsichtsperson gestartet. Die Teilnehmenden markieren ihre Lösungen zunächst auf den *Kandidatenblättern* und übertragen sie am Ende auf den Antwortbogen *Hören*. Für das Übertragen ihrer Lösungen stehen den Teilnehmenden circa 5 Minuten innerhalb der Prüfungszeit zur Verfügung.
3. Danach bearbeiten die Teilnehmenden in der Regel das Modul SCHREIBEN. Den Text verfassen die Teilnehmenden direkt auf dem Antwortbogen *Schreiben*. Falls die Teilnehmenden den Text zunächst auf Konzeptpapier verfassen, planen sie für das Übertragen ihres Textes auf den Antwortbogen *Schreiben* ausreichend Zeit innerhalb der Prüfungszeit ein.

§ 3 Das Modul SPRECHEN

Das Einführungsgespräch einschließlich Vorstellung der Prüfenden und des/der Teilnehmenden dauert circa eine Minute.

Teil 1 dauert circa 2–3 Minuten, Teil 2 circa 3–4 Minuten pro PTN und Teil 3 circa 1–2 Minuten pro PTN.

Die gesamte Prüfung dauert also circa 15 Minuten (Paarprüfung) bzw. 10 Minuten (Einzelprüfung).

3.1 Organisation

Für die Prüfung steht ein geeigneter Raum zur Verfügung. Tisch- und Sitzordnung werden so gewählt, dass eine freundliche Prüfungsatmosphäre entsteht. Die Zusammenstellung der Teilnehmenden der Paarprüfung erfolgt nach dem Zufallsprinzip.

Bitta imtihon sanasida bo'lib o'tadigan yozma imtionning uchta moduli quyidagi tartibda bo'lib o'tadi:

1. Odatda imtihon O'QISH moduli bilan boslanadi. Imtihon topshiruvchilar o'z javoblarini *Imtihon topshiruvchining to'plamiga* belgilab boradilar, imtihon yakunida esa ular *O'qish* moduli javoblar varaqasiga ko'chiriladi. Bu jarayon uchun imtihon topshiruvchilarga umumiy imtihon vaqtidan taxminan 5 daqiqa ajratiladi.
2. Tanaffusdan so'ng odatda TINGLASH moduli o'tkaziladi. Audiofayl joylashgan texnik vosita imtihon nazoratchisi tomonidan ishga tushiriladi. Imtihon topshiruvchilar o'z javoblarini *imtihon topshiruvchining to'plamiga* belgilab boradilar, imtihon yakunida esa ular *Tinglash* javoblar varaqasiga ko'chiriladi. Bu jarayon uchun imtihon topshiruvchilarga umumiy imtihon vaqtidan taxminan 5 daqiqa ajratiladi.
3. Shundan so'ng imtihon topshiruvchilar YOZMA NUTQ moduli topshiriqlarini bajaradilar. Matnlar to'g'ridan-to'g'ri *Yozma nutq* javoblar varaqasiga yoziladi. Agar imtihon topshiruvchilar matnlarni avval qoralama varaqalarga yozgan bo'lsalar, ularni *Yozma nutq* javoblar varaqasiga ko'chirish uchun umumiy imtihon vaqti ichida yetarlicha vaqt rejalashtirishlari kerak

§ 3 OG'ZAKI NUTQ moduli

Imtihon oluvchilar / topshiruvchilarning o'zini tanishtirish jarayonini o'z ichiga olgan kirish suhbat taxminan bir daqiqa davom etadi.

1-qism taxminan 2-3 daqiqa, 2-qism har bir ishtirokchi uchun taxminan 3-4 daqiqa va 3-qism esa har bir ishtirokchi uchun taxminan 1-2 daqiqa davom etadi.

Jami imtihon vaqti taxminan 15 daqiqa (ikki kishilik imtihon) yoki 10 daqiqa (bir kishilik imtihon) davom etadi.

3.1 Tashkil etish

Imtihon o'tkazish uchun maxsus xona ajratiladi. Stol va o'tirish tartibi imtihon jarayonida xayrixohlik muhitini yaratishga qaratiladi.

Guruhni shakllantirish tasodifiy tanlash tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Wie bei allen anderen Modulen muss die Identität des/der Teilnehmenden vor Beginn des Moduls SPRECHEN, gegebenenfalls auch während des Moduls SPRECHEN, zweifelsfrei festgestellt werden.

3.2 Vorbereitung

Für die Vorbereitung steht ein geeigneter Raum zur Verfügung. Die Aufsichtsperson gibt den Teilnehmenden ohne Kommentar die *Kandidatenblätter* für das Modul SPRECHEN; alle Aufgabenstellungen sind auf den *Kandidatenblättern* vermerkt. Für Notizen steht gestempeltes Konzeptpapier zur Verfügung. Die Teilnehmenden dürfen ihre in der Vorbereitungszeit erstellten stichpunktartigen Notizen während des Moduls SPRECHEN verwenden.

3.3 Ablauf

Das Modul SPRECHEN wird von zwei Prüfenden durchgeführt. Eine/-r der Prüfenden moderiert das Prüfungsgespräch.

Bei Aufgabe 3 gibt der/die andere Prüfende Rückmeldung und stellt eine Frage. Beide Prüfenden machen Notizen und bewerten die Prüfungsleistungen unabhängig voneinander.

Für das Modul SPRECHEN gilt folgender Ablauf:

Zu Beginn begrüßen die Prüfenden die Teilnehmenden und stellen sich selbst kurz vor. Der/Die Moderator/-in führt ein kurzes Gespräch mit den Prüfungsteilnehmenden zum Kennenlernen. Die Prüfenden erläutern vor jedem Prüfungsteil kurz die Aufgabenstellung.

1. In Teil 1 planen die Teilnehmenden etwas gemeinsam. Im Fall einer Einzelprüfung übernimmt eine/-r der Prüfenden die Rolle des Gesprächspartners/der Gesprächspartnerin.
2. In Teil 2 präsentieren die Teilnehmenden nacheinander ein Thema. Im Fall einer Einzelprüfung hält nur der/die Teilnehmende einen kurzen Vortrag.

OG'ZAKI NUTQ moduli boshlanishidan avval, ammo zaruriy holatda OG'ZAKI NUTQ moduli davom etayotgan vaqtda ham, barcha modullarni topshirish jarayonidagi kabi imtihon topshiruvchilarning shaxsi shubhasiz tasdiqlanishi kerak.

3.2 Tayyorgarlik

Tayyorgarlik ko'rish uchun tegishli xonalar ajratiladi. Imtihon nazoratchisi OG'ZAKI NUTQ moduli uchun *Imtihon topshiruvchining to'plamini* hech qanday izohlarsiz imtihon ishtirokchilariga tarqatadi. Barcha topshiriq shartlari *Imtihon topshiruvchining to'plamida* berilgan. Qaydlar uchun muhrlangan qoralama qog'oz tarqatiladi. Imtihon ishtirokchilariga OG'ZAKI NUTQ moduli davomida tayyorgarlik paytida yozilgan qaydlardan foydalanishga ruxsat beriladi.

3.3 Imtihon jarayoni

Imtihonning OG'ZAKI NUTQ moduli ikkita imtihon oluvchi mutaxassis tomonidan o'tkaziladi. Ulardan biri imtihon suhbatiga moderatorlik qiladi.

3-vazifada imtihon oluvchilardan biri berilgan javobga izoh beradi va savol beradi. Har ikkala imtihon oluvchilar imtihon jarayonida o'z qaydlarini yozib boradilar va imtihon natijalarini mustaqil ravishda baholaydilar.

OG'ZAKI NUTQ moduli quyidagicha tashkil etiladi:

Dastlab imtihon oluvchilar imtihon topshiruvchilar bilan salomlashadilar va o'zlarini qisqacha tanishtiradilar. Moderator imtihon ishtirokchilari bilan kichik tanishuv suhbatini o'tkazadi. Har bir qism boshlanishidan oldin imtihon oluvchilar topshiriq shartlarini tushuntiradilar.

1. Birinchi qismda imtihon oluvchilar topshiriqni birgalikda rejalashtiradilar. Yakka tartibdagi imtihon o'tkazilganda, imtihon oluvchilardan biri suhbatdosh vazifasini bajaradi.
2. Ikkinchi qismda ishtirokchilar birin-ketin mavzuni taqdim etadilar. Yakka tartibdagi imtihonda faqat ishtirokchining o'zi qisqa nutq tayyorlaydi.

3. In Teil 3 geben der/die andere Teilnehmende und der/die zweite Prüfende, die bei der Präsentation zugehört haben, Rückmeldung zu dem Gehörten und stellen Fragen. Der/Die Teilnehmende, der/die den Vortrag gehalten hat, beantwortet diese Fragen. Im Fall einer Einzelprüfung stellt nur der/die Prüfende Fragen zum Vortrag.

Am Ende der Prüfung werden alle Unterlagen, auch das Konzeptpapier, eingesammelt.

§ 4 Bewertung schriftliche Module

Die Bewertung der schriftlichen Module findet im Prüfungszentrum oder in ausgewiesenen Diensträumen statt. Die Bewertung erfolgt jeweils durch zwei unabhängig Bewertende. Die Ergebnisse aus den schriftlichen Modulen werden nicht an die Prüfenden des Moduls SPRECHEN weitergegeben.

4.1 Modul LESEN

Im Modul LESEN gibt es 30 Items. Jedes Item ist ein Messpunkt. Pro Messpunkt und Lösung werden entweder 1 Punkt oder 0 Punkte vergeben.

Das Ergebnis wird auf 100 Ergebnispunkte umgerechnet. Dazu werden die erreichten Messpunkte mit 3,33 multipliziert und das Ergebnis jeweils gerundet:

| | | | | | | | | | | |
|----------------|-----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| Messpunkte | 30 | 29 | 28 | 27 | 26 | 25 | 24 | 23 | 22 | 21 |
| Ergebnispunkte | 100 | 97 | 93 | 90 | 87 | 83 | 80 | 77 | 73 | 70 |

| | | | | | | | | | | |
|----------------|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| Messpunkte | 20 | 19 | 18 | 17 | 16 | 15 | 14 | 13 | 12 | 11 |
| Ergebnispunkte | 67 | 63 | 60 | 57 | 53 | 50 | 47 | 43 | 40 | 37 |

| | | | | | | | | | | | |
|----------------|----|----|----|----|----|----|----|----|---|---|---|
| Messpunkte | 10 | 9 | 8 | 7 | 6 | 5 | 4 | 3 | 2 | 1 | 0 |
| Ergebnispunkte | 33 | 30 | 27 | 23 | 20 | 17 | 13 | 10 | 7 | 3 | 0 |

Die erzielten Ergebnisse werden in den Antwortbogen *Lesen* eingetragen, der von beiden Bewertenden gezeichnet wird.

3. Uchinchi qismda taqdimotni tinglagan boshqa ishtirokchi va ikkinchi imtihan oluvchi eshitganlari bo'yicha fikr bildiradilar va savollar beradilar. O'z taqdimotidan so'ng ishtirokchi tinglovchilarning savollariga javob beradi. Yakka tartibdagi imtihonda imtihan oluvchining o'zi taqdimot qiluvchiga savollar beradi.

Imtihan yakunida barcha materiallar, shu bilan birga qoramalar ham to'planadi.

§ 4 Yozma imtihonni baholash

Imtihonning yozma qismini baholash imtihan markazida yoki maxsus ajratilgan xizmat xonalarida amalga oshiriladi. Baholash ikkita mustaqil baholovchi mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi. Yozma imtihan natijalari OG'ZAKI NUTQ moduli imtihan oluvchilariga berilmaydi.

4.1 O'QISH moduli

O'QISH moduli 30 ta savol (Item) dan iborat. Har bir savolning o'zi o'lchov birligidir, ya'ni har bir savolning javobi uchun 1 yoki 0 ball beriladi.

To'plangan dastlabki ballar 3,33 ga ko'paytiriladi va umumiy natija yaxlitlanadi. Shu tariqa umumiy natija 100 ballga tenglashtiriladi.

| | | | | | | | | | | |
|----------------|-----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| Dastlabki ball | 30 | 29 | 28 | 27 | 26 | 25 | 24 | 23 | 22 | 21 |
| Natija ball | 100 | 97 | 93 | 90 | 87 | 83 | 80 | 77 | 73 | 70 |

| | | | | | | | | | | |
|----------------|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| Dastlabki ball | 20 | 19 | 18 | 17 | 16 | 15 | 14 | 13 | 12 | 11 |
| Natija ball | 67 | 63 | 60 | 57 | 53 | 50 | 47 | 43 | 40 | 37 |

| | | | | | | | | | | | |
|----------------|----|----|----|----|----|----|----|----|---|---|---|
| Dastlabki ball | 10 | 9 | 8 | 7 | 6 | 5 | 4 | 3 | 2 | 1 | 0 |
| Natija ball | 33 | 30 | 27 | 23 | 20 | 17 | 13 | 10 | 7 | 3 | 0 |

To'plangan ballar har ikki baholovchi tomonidan to'ldirilgan *O'qish* javoblar varaqasiga kiritiladi.

4.2 Modul HÖREN

Im Modul HÖREN gibt es 30 Items. Jedes Item ist ein Messpunkt. Pro Messpunkt und Lösung werden entweder 1 Punkt oder 0 Punkte vergeben.

Das Ergebnis wird auf 100 Ergebnispunkte umgerechnet. Dazu werden die erreichten Messpunkte mit 3,33 multipliziert und das Ergebnis jeweils gerundet:

| | | | | | | | | | | |
|----------------|-----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| Messpunkte | 30 | 29 | 28 | 27 | 26 | 25 | 24 | 23 | 22 | 21 |
| Ergebnispunkte | 100 | 97 | 93 | 90 | 87 | 83 | 80 | 77 | 73 | 70 |

| | | | | | | | | | | |
|----------------|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| Messpunkte | 20 | 19 | 18 | 17 | 16 | 15 | 14 | 13 | 12 | 11 |
| Ergebnispunkte | 67 | 63 | 60 | 57 | 53 | 50 | 47 | 43 | 40 | 37 |

| | | | | | | | | | | | |
|----------------|----|----|----|----|----|----|----|----|---|---|---|
| Messpunkte | 10 | 9 | 8 | 7 | 6 | 5 | 4 | 3 | 2 | 1 | 0 |
| Ergebnispunkte | 33 | 30 | 27 | 23 | 20 | 17 | 13 | 10 | 7 | 3 | 0 |

Die erzielten Ergebnisse werden in den Antwortbogen *Hören* eingetragen, der von beiden Bewertenden gezeichnet wird.

4.3 Modul SCHREIBEN

Die Bewertung des Moduls SCHREIBEN erfolgt durch zwei voneinander unabhängig Bewertende nach festgelegten Bewertungskriterien (s. *Modellsatz*, Teil *Prüferblätter*). Es werden nur die vorgegebenen Punktwerte für jedes der Kriterien vergeben; Zwischenwerte sind nicht zulässig. Die für die Vergabe der Punkte relevanten Fehlgriffe etc. werden auf dem Bogen *Schreiben – Bewertung* notiert.

Im Modul SCHREIBEN sind insgesamt maximal 100 Punkte erreichbar. Es werden nur die auf dem Bogen *Schreiben – Bewertung* vorgesehenen Punktwerte für jedes der Kriterien vergeben. Bewertet wird die Reinschrift auf dem Antwortbogen *Schreiben*.

4.2 TINGLASH moduli

TINGLASH moduli 30 ta savol (Item) dan iborat. Har bir savolning o'zi o'lchov birligidir, ya'ni har bir savolning javobi uchun 1 yoki 0 ball beriladi.

To'plangan dastlabki ballar 3,33 ga ko'paytiriladi va umumiy natija yaxlitlanadi. Shu tariqa umumiy natija 100 ballga tenglashtiriladi.

| | | | | | | | | | | |
|----------------|-----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| Dastlabki ball | 30 | 29 | 28 | 27 | 26 | 25 | 24 | 23 | 22 | 21 |
| Natija ball | 100 | 97 | 93 | 90 | 87 | 83 | 80 | 77 | 73 | 70 |

| | | | | | | | | | | |
|----------------|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| Dastlabki ball | 20 | 19 | 18 | 17 | 16 | 15 | 14 | 13 | 12 | 11 |
| Natija ball | 67 | 63 | 60 | 57 | 53 | 50 | 47 | 43 | 40 | 37 |

| | | | | | | | | | | | |
|----------------|----|----|----|----|----|----|----|----|---|---|---|
| Dastlabki ball | 10 | 9 | 8 | 7 | 6 | 5 | 4 | 3 | 2 | 1 | 0 |
| Natija ball | 33 | 30 | 27 | 23 | 20 | 17 | 13 | 10 | 7 | 3 | 0 |

To'plangan ballar har ikki baholovchi tomonidan to'ldirilgan *Tinglash* javoblar varaqasiga kiritiladi.

4.3 YOZMA NUTQ moduli

YOZMA NUTQ modulini baholash belgilangan baholash mezonlariga muvofiq ikkita mustaqil ekspert tomonidan amalga oshiriladi (*Namunaviy imtihan variantlari* ning *Imtihan oluvchining to'plami* qismiga qarang). Har bir mezon uchun faqat belgilangan ball qiymatlari olinadi, oraliq ballga ruxsat berilmaydi. Ball qo'yish uchun muhim bo'lgan holatlar, masalan xatolar va boshqalar *Yozma nutq – baholash* qaydnoma shakliga kiritiladi.

YOZMA NUTQ moduli uchun to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball - 100 ball.

Har bir mezon uchun faqat *Yozma nutq – baholash* qaydnoma shaklida ko'rsatilgan ballar beriladi. *Yozma nutq* javoblar varaqsida berilgan matnlar tekshiriladi va baholanadi.

Die jeweiligen Punktwerte von Bewertung 1 und Bewertung 2 werden auf den Bogen *Schreiben – Ergebnis* übertragen. Zur Ermittlung des Gesamtergebnisses wird das arithmetische Mittel aus den beiden Bewertungen gezogen und auf volle Punkte auf- bzw. abgerundet.

Eine **Drittbewertung** (= Bewertung 3) erfolgt, wenn die vergebenen Punktzahlen für das Modul SCHREIBEN der/des einen Bewertenden **unterhalb** der Bestehensgrenze und der/des anderen Bewertenden **oberhalb** der Bestehensgrenze liegen und dabei **das arithmetische Mittel** aus beiden Bewertungen **unter der Bestehensgrenze** von 60 Punkten liegt.

Das Ergebnis wird auf dem Bogen *Schreiben – Ergebnis* eingetragen.

§ 5 Bewertung Modul SPRECHEN

Die Teile 1 bis 3 zur mündlichen Produktion werden von zwei Prüfenden getrennt bewertet.

Die Bewertung erfolgt nach festgelegten Bewertungskriterien (§. *Prüferblätter*). Es werden nur die vorgesehenen Punktwerte für jedes der Kriterien vergeben; Zwischenwerte sind nicht zulässig.

Im Modul SPRECHEN sind maximal 100 Punkte erreichbar. Es werden nur die auf dem Bogen *Sprechen – Bewertung* vorgesehenen Punktwerte für jedes der Kriterien vergeben. Das Einleitungsgespräch wird nicht bewertet.

Zur Ermittlung des Ergebnisses des Moduls SPRECHEN wird aus beiden Bewertungen das arithmetische Mittel gezogen und auf volle Punkte gerundet (bis 0,49 wird abgerundet, ab 0,5 wird aufgerundet). Das Ergebnis des Moduls SPRECHEN wird auf dem Bogen *Sprechen – Ergebnis* festgehalten und als rechnerisch richtig gezeichnet. Alternativ können die Bewertungen der Prüfenden auch in eine digitale Bewertungsmaske eingegeben werden; unabhängig davon, ob eine papierbasierte oder digitale Prüfung gebucht wurde. Die Prüfenden und Bewertenden authentifizieren sich auf der Testplattform durch individuelle Login-Daten; daher entfällt die Notwendigkeit einer Unterschrift.

1-baholash va 2-baholashning tegishli ballari *Yozma nutq – natija* qaydnomasiga kiritiladi. Umumiy natijani aniqlash uchun ikkala baholash qaydnomalaridagi ballarning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi va to'liq ballgacha yuqoriga yoki pastga yaxlitlanadi.

Agar bir mutaxassis tomonidan YOZISH moduli uchun berilgan ballar **o'tish ballidan past** bo'lsa, boshqa mutaxassis qo'ygan ball esa **o'tish ballidan yuqori** bo'lsa va ikkala ballning **o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi** o'tish ballidan, yani 60 balldan past bo'lsa **uchinchi baholash** (= 3-baholash) o'tkaziladi.

Natija *Yozma nutq – natija* qaydnomasiga kiritiladi.

§ 5 OG'ZAKI NUTQ modulini baholash

Modulning og'zaki taqdimotga bag'ishlangan 1-3 qismlar ikkita imtihan oluvchi tomonidan alohida baholanadi.

Baholash belgilangan baholash mezonlariga muvofiq amalga oshiriladi (*Imtihan oluvchining to'plami* ga qarang). Har bir mezon uchun faqat belgilangan ball qiymatlari olinadi, oraliq ballga ruxsat berilmaydi.

OG'ZAKI NUTQ modulida maksimal 100 ball to'plash mumkin. Har bir mezon bo'yicha faqat *Og'zaki nutq – baholash* varaqasida ko'rsatilgan ballar belgilanadi. Kirish suhbat baholanmaydi.

OG'ZAKI NUTQ moduli bo'yicha natijani aniqlash uchun ikkala qaydnomadan o'rtacha arifmetik qiymati olinadi va to'liq ballgacha yaxlitlanadi (0,49 gacha pastga, 0,5 dan boshlab yuqoriga qarab yaxlitlanadi). OG'ZAKI NUTQ modulining natijasi *Og'zaki nutq – natija* qaydnoma shakliga kiritiladi va arifmetik jihatdan to'g'ri deb rasmiylashtiriladi. Shuningdek, imtihan qog'ozda yoki raqamli shaklda topshirilishidan qat'i nazar, imtihan oluvchining ballari raqamli qaydnomaga kiritilishi mumkin. Imtihan oluvchilar va baholovchilar shaxsiy kirish ma'lumotlari yordamida test platformasida autentifikatsiya qilinadi, shu sababdan ulardan hech qanday imzo talab qilinmaydi.

§ 6 Prüfungsergebnisse

Das jeweilige Ergebnis der Module LESEN und HÖREN wird auf den bewerteten Antwortbögen *Lesen* bzw. *Hören*, das Ergebnis der Module SCHREIBEN und SPRECHEN auf den Bögen *Schreiben – Ergebnis* bzw. *Sprechen – Ergebnis* dokumentiert.

6.1 Ermittlung der Gesamtpunktzahl

In jedem Modul können maximal 100 Punkte = 100 % erreicht werden.

6.2 Punkte, Prozentzahlen und Prädikate

Die Prüfungsleistungen der Teilnehmenden werden für jedes Modul auf der Zeugnisvorderseite in Form von Punkten bzw. Prozentzahlen dokumentiert. Auf der Zeugniseckseite werden den Punkten Prädikate zugeordnet.

| Punkte | Prädikat |
|--------|-----------------|
| 100–90 | sehr gut |
| 89–80 | gut |
| 79–70 | befriedigend |
| 69–60 | ausreichend |
| 59–0 | nicht bestanden |

6.3 Bestehen des Moduls

Ein Modul ist bestanden, wenn mindestens 60 Punkte bzw. 60 % erreicht sind.

§ 7 Wiederholung und Zertifizierung der Module

Es gelten § 14 und § 15 der *Prüfungsordnung*.

Die Module können, sofern es die organisatorischen Möglichkeiten am Prüfungszentrum erlauben, beliebig oft abgelegt bzw. wiederholt werden.

§ 6 Imtihon natijalari

O'QISH va TINGLASH modullarining tegishli natijalari baholanadigan *O'qish* va *Tinglash* javoblar varaqalarida, shuningdek YOZMA va OG'ZAKI NUTQ modullari natijalari *Yozma nutq – natija* va *Og'zaki nutq – natija* qaydnoma shakllarida rasmiylashtiriladi.

6.1 Umumiy natijani hisoblash

Har bir modul bo'yicha jami 100 ball = 100 % ga erishish mumkin.

6.2 Ballar, foiz va baho

Ishtirokchilarning imtihon natijalari sertifikatning old tomonida har bir modul bo'yicha ball yoki foiz ko'rinishida qayd etiladi. Sertifikatning orqa tomonida ballarga mos baholar beriladi.

| Ball | Baho |
|--------|------------|
| 100–90 | a'lo |
| 89–80 | yaxshi |
| 79–70 | qoniqarli |
| 69–60 | yetarli |
| 59–0 | qoniqarsiz |

6.3 Imtihondan muvaffaqiyatli o'tish

Jami 60 ball to'planganda, ya'ni 60% foizga erishilganda imtihon moduli muvaffaqiyatli topshirilgan hisoblanadi.

§ 7 Imtihonni qayta topshirish va sertifikat olish

Bu holatda *Imtihon topshirish tartibining* § 14 va § 15 bandlari amal qiladi.

Imtihon markazi imtihonni o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lsa, modullarni ko'p marotaba qayta topshirish mumkin.

§ 8 Schlussbestimmungen

Diese *Durchführungsbestimmungen* treten am 1. September 2025 in Kraft und gelten erstmals für Prüfungsteilnehmende, deren Prüfung nach dem 1. September 2025 stattfindet.

Im Falle von sprachlichen Unstimmigkeiten zwischen den einzelnen Sprachversionen der *Durchführungsbestimmungen* ist die deutsche Fassung maßgeblich.

§ 8 Yakuniy qoidalar

Imtihon o'tkazish qoidalar 2025-yil 1-sentabrdan kuchga kiradi va 2025-yil 1-sentabrdan keyin o'tkaziladigan imtihonlarni topshiruvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

*Imtihon o'tkazish qoidalar*ining alohida til versiyalari o'rtasida til tafovuti yuzaga kelgan taqdirda, nemis tilidagi versiya ustunlik qiladi.

Legende zu Formatierungen:

VERSAL: Prüfungsnamen und Prüfungsteile (z. B. „Modul SPRECHEN“)

kursiv: Dokumentenbezeichnungen, Eigennamen, Verweise (z. B. „Der Bogen *Schreiben – Ergebnis* wird ...“)

ANHANG

Zusätzliche Regelungen zur Durchführung digitaler Deutschprüfungen

Digitale Deutschprüfungen werden in Präsenz an einem Laptop des Prüfungszentrums des Goethe-Instituts abgelegt. Abweichend oder zusätzlich zu den oben stehenden Regelungen gilt Folgendes:

1. Abweichend von 1.2 (Prüfungsmaterialien) gilt:

Sämtliches Prüfungsmaterial der Module/Prüfungsteile LESEN, HÖREN und SCHREIBEN wird den Prüfungsteilnehmenden mittels einer Testplattform digital vorgelegt und von diesen digital bearbeitet. Die Prüfungsteilnehmenden verfassen ihre Texte mit einer deutschen Tastatur. Das digitale Material entspricht inhaltlich der papierbasierten Prüfung. Die Übertragung auf Antwortbögen entfällt, da die Prüfungsteilnehmenden ihre Lösungen und ihre Texte direkt auf der Testplattform eingeben. Eine Änderung ihrer Lösungen und ihrer Texte ist so lange möglich, bis das jeweilige Modul bzw. bei nicht-modularen Prüfungen die schriftliche Prüfung abgegeben wurde bzw. die vorgegebene Prüfungszeit abgelaufen ist.

Die Teilnehmenden können am Anfang jedes Moduls bzw. bei nicht-modularen Prüfungen zu Beginn der schriftlichen Prüfung ein Tutorial mit Erklärungen zum Umgang mit der Testplattform ansehen. Die Prüfungszeit startet erst danach.

Die Texte zum Modul/Prüfungsteil HÖREN werden direkt durch die Testplattform über Kopfhörer ausgespielt.

Beim Modul/Prüfungsteil SPRECHEN erhalten die Prüfungsteilnehmenden die Aufgaben weiterhin auf Papier.

Für alle Module/Prüfungsteile können die Prüfungsteilnehmenden bei Bedarf vom Prüfungszentrum gestempeltes Konzeptpapier erhalten.

ILOVA

Nemis tilidan raqamli (digital) imtihonlarni o'tkazish uchun qo'shimcha qoidalar

Nemis tilidan raqamli (digital) imtihonlar Gyote-Institutining imtihon markazlaridan birida noutbukda shaxsan ishtirok etish orqali topshiriladi. Yuqoridagi qoidalariga kiritilgan quyidagi o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar amalda qo'llanadi

1. 1.2 (Imtihon materiallari) dagi o'zgarishlar:

Imtihonning O'QISH, TINGLASH va YOZMA NUTQ modullari / qismlari uchun barcha imtihon materiallari imtihon topshiruvchilarga test platformasi orqali raqamli ko'rinishda taqdim etiladi va ular tomonidan raqamli tarzda ishlanadi. Imtihon topshiruvchilar o'z matnlarini nemis tili klaviaturasi yordamida yozadilar. Raqamli imtihon materiallarining mazmuni qog'oz shaklida o'tkaziladigan imtihon materiallari mazmuniga mos keladi. Javoblarni javob varaqaqlariga o'tkazishning hojati yo'q, chunki imtihon topshiruvchilar o'z yechimlari va matnlarini bevosita test platformasiga kiritedilar. Imtihon topshiruvchilar imtihonning tegishli moduli yoki modulli bo'lmagan imtihonlarda yozma imtihon topshirilmaguncha yoki imtihon vaqti tugaguniga qadar o'z javoblari va matnlarini o'zgartirishlari mumkin.

Imtihon topshiruvchilar har bir modulning yoki modulli bo'lmagan imtihonlarda yozma imtihon boshlanishidan avval, test platformasidan qanday foydalanishni tushuntiruvchi qo'llanmani ko'rib chiqishlari mumkin. Shundan keyingina imtihonning asosiy vaqti boshlanadi.

TINGLASH moduli/imtihon qismi uchun matnlar quloqchilarning yordamida bevosita test platformasidan tinglanadi.

OG'ZAKI NUTQ moduli/imtihon qismida imtihon ishtirokchilari topshiriqlarni avvalgidek qog'oz shaklida oladilar.

Barcha modullar/imtihon qismlari uchun zarurat bo'lganda imtihon markazi tomonidan imtihon topshiruvchilarga muhrlangan qoralama qog'oz taqdim etiladi.

2. Abweichend von § 4 (Bewertung) gilt:

Die Aufgaben mit vorgegebenen Antwortmöglichkeiten in den Modulen/Prüfungsteilen LESEN und HÖREN werden technisch automatisiert durch die Testplattform bewertet. Bei den Modulen/Prüfungsteilen SCHREIBEN und SPRECHEN werden die Bewertungen durch zwei voneinander unabhängig Prüfende/Bewertende direkt auf der Testplattform eingegeben. Die Bewertungskriterien entsprechen den Bewertungskriterien der papierbasierten Prüfung. Die Prüfenden und Bewertenden authentifizieren sich auf der Testplattform durch individuelle Login-Daten, daher entfällt die Notwendigkeit einer Unterschrift.

2. § 4 (Baholash) dagi o'zgarishlar:

O'QISH va TINGLASH modullari/imtihon qismlarida javob variantlari berilgan topshiriqlar texnik jihatdan avtomatlashtirilgan bo'lib, test platformasi tomonidan tekshiriladi. YOZMA NUTQ va OG'ZAKI NUTQ modullari/imtihon qismlarida baholar bir-biridan mustaqil ravishda ikkita imtihon oluvchi/ baholovchi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri test platformasiga kiritiladi. Raqamli (digital) imtihonning baholash mezonlari qog'oz imtihon uchun baholash mezonlari bilan bir xil. Imtihon oluvchilar va baholovchilar shaxsiy kirish ma'lumotlari yordamida test platformasida autentifikatsiya qilinadi, shu sababdan hech qanday imzo talab qilinmaydi.

Zusätzliche Regelungen zur Durchführung von Online-Deutschprüfungen

Online-Deutschprüfungen werden unter bestimmten Voraussetzungen (vgl. zusätzliche Regelungen in den Anhängen der *Prüfungsordnung* und *Durchführungsbestimmungen*) ortsunabhängig an einem privaten Desktop-Computer oder Laptop abgelegt. Für Online-Deutschprüfungen gilt Folgendes:

1. Abweichend von 1.2 (Prüfungsmaterial) gilt:

Sämtliches Prüfungsmaterial der Module/Prüfungsteile LESEN, HÖREN und SCHREIBEN wird den Prüfungsteilnehmenden mittels einer Testplattform digital vorgelegt und von diesen digital bearbeitet. Das digitale Material entspricht inhaltlich der papierbasierten Prüfung. Die Übertragung auf Antwortbögen entfällt, da die Prüfungsteilnehmenden ihre Lösungen und ihre Texte direkt auf der Testplattform eingeben. Eine Änderung ihrer Lösungen und ihrer Texte ist so lange möglich, bis das jeweilige Modul bzw. bei nicht-modularen Prüfungen die schriftliche Prüfung abgegeben wurde bzw. die vorgegebene Prüfungszeit abgelaufen ist.

Die Teilnehmenden können am Anfang jedes Moduls bzw. bei nicht-modularen Prüfungen zu Beginn der schriftlichen Prüfung ein Tutorial mit Erklärungen zum Umgang mit der Testplattform ansehen. Die Prüfungszeit startet erst danach.

Die Texte zum Modul/Prüfungsteil HÖREN werden direkt durch die Testplattform über den Lautsprecher ausgespielt.

2. Zusätzlich zu 2.1 (Vorbereitung) gilt:

2.1 Die Prüfungsteilnehmenden verwenden einen Desktop-Computer oder Laptop mit Netzbetrieb, stabiler Internetverbindung, integriertem Mikrofon, integriertem/externem Lautsprecher und integrierter/externer Webcam.

2.2 Die Tastatursprache ist auf Deutsch eingestellt.

2.3 Die Prüfungsteilnehmenden stellen die Erfüllung der **technischen Voraussetzungen**, die im Folgenden sowie im Buchungsprozess aufgeführt werden, für die Prüfungsdurchführung eigenverantwortlich sicher:

Nemis tilidan onlayn imtihonlar o'tkazish bo'yicha qo'shimcha qoidalar

Muayyan sharoitlarda (*Imtihon topshirish tartibi* va *Imtihon o'tkazish qoidalarining* ilovalaridagi qo'shimcha qoidalariga qarang) nemis tilidan onlayn imtihonlar joylashuvidan qat'i nazar, statsionar kompyuter yoki noutbukda topshirilishi mumkin. Nemis tilidan onlayn imtihonlar uchun quyidagi qoidalar qo'llaniladi:

1. 1.2 (Imtihon materiallari) dagi o'zgarishlar:

O'QISH, TINGLASH va YOZMA NUTQ modullari/imtihon qismlarining barcha topshiriqlari imtihon ishtirokchilariga test platformasidan foydalangan holda raqamli ko'rinishda taqdim etiladi va ular tomonidan raqamli tarzda bajariladi. Raqamli imtihon materiallarining mazmuni qog'ozda o'tkaziladigan imtihon mazmuniga mos keladi. Javoblarni javob varaqalariga o'tkazishning hojati yo'q, chunki imtihon topshiruvchilar o'z yechimlari va matnlarini bevosita test platformasiga kiritadilar. Imtihon topshiruvchilar imtihonning tegishli moduli yoki modulli bo'lmagan imtihonlarda yozma imtihon topshirilmaguncha yoki imtihon vaqti tugaguniga qadar o'z javoblari va matnlarini o'zgartirishlari mumkin.

Imtihon topshiruvchilar har bir modulning yoki modulli bo'lmagan imtihonlarda yozma imtihon boshlanishidan avval, test platformasidan qanday foydalanishni tushuntiruvchi qo'llanmani ko'rib chiqishlari mumkin. Shundan keyingina imtihonning asosiy vaqti boshlanadi.

TINGLASH moduli/imtihon qismi uchun matnlar quloqchinlar yordamida bevosita test platformasidan tinglanadi.

2. 2.1. (Tayyorgarlik) ga qo'shimchalar:

2.1. Imtihon ishtirokchilari tarmoqqa ulangan, barqaror internet mavjud, o'rnatilgan mikrofon, o'rnatilgan/tashqi ovoz kuchaytiruvchi vosita va o'rnatilgan/tashqi vebkamera ega statsionar kompyuter yoki noutbukdan foydalanadilar.

2.2. Klaviaturada nemis tili shrifti o'rnatilgan bo'lishi kerak.

2.3 Imtihon topshiruvchilar quyidagi, hamda, imtihondagi o'z ishtiroklarini bron qilish jarayonida sanab o'tilgan **texnik talablarni** bajarishga shaxsan ma'suldirlar.

Technische Voraussetzungen:

Gerät:

- Desktop-, Laptop-Computer oder Chromebook
- Sicherheitsüberprüfung und ggf. zweite Kamera: Smartphone

Monitor:

- ein Monitor oder Bildschirm
- mehrere Monitore oder Doppelbildschirme sind nicht zulässig

Lautsprecher/Mikrofon:

- interner oder externer Lautsprecher sowie ein im Computer oder der Webkamera integriertes Mikrofon
- Kopfhörer mit oder ohne eingebautes Mikrofon oder In-Ear-Kopfhörer sind nicht zulässig.

Kamera:

- Integrierte Kamera oder eine separate Webkamera
- Hinweis: Die Kamera muss so bewegt werden können, dass die Prüfungsaufsicht einen 360°-Blick auf den Raum, einschließlich der Tischoberfläche und Tischunterseite, erhält.
- Ggf. Smartphone als zweite Kamera

Browser:

- Google-Chrome™-Browser
- Browser des Dienstleisters für die virtuelle Prüfungsüberwachung wird beim Technik-Check und am Prüfungstag bereitgestellt.

Internetverbindung:

- Erforderlich: Upload- und Download-Geschwindigkeit von 5 Mbit/s
- Empfehlung: 10 Mbit/s

2.4 Unmittelbar vor der Prüfungsdurchführung müssen alle Computer-Anwendungen und Programme geschlossen sein, die nicht für die Prüfung relevant sind.

Texnik talablar:

Texnik vositalar:

- Statsionar kompyuter, noutbuk yoki Chromebook
- Xavfsizlik tekshiruvini o'tkazish, shuningdek, zarur hollarda smartfondan ikkinchi kamera sifatida foydalanish.

Monitor:

- kompyuter monitori yoki ekran
- bir nechta kompyuter monitorlaridan yoki ikkita ekran-dan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

Ovoz kuchaytiruvchi vosita/mikrofon:

- ichki yoki tashqi ovoz kuchaytiruvchi vosita, hamda, kompyuter yoki veb-kameraga o'rnatilgan mikrofon
- o'rnatilgan mikrofonli yoki mikrofondan quloqchinlar (naushniklar) yoki minigarnaturali simsiz quloqchinlardan foydalanishga ruxsat berilmaydi

Kamera:

- O'rnatilgan kamera yoki alohida veb-kamera
- Eslatma: Kamera harakatlanuvchi bo'lishi va imtihan nazoratchisi 360° da xonani, jumladan, stol yuzasi va uning pastki qismini ko'ra olishi kerak.
- Zarur hollarda smartfon ikkinchi kamera sifatida

Brauzer:

- Google Chrome™ brauzeri
- Virtual imtihan nazorati uchun xizmat ko'rsatuvchi provaydning brauzeri texnik ko'rik va imtihan kuni taqdim etiladi

Internetga ulanish:

- Kerak bo'ladi: yuklab olish va yuklash tezligi 5 Mbps dan baland
- Tavsiya: 10 Mbit/s

2.4 Imtihan boshlanishidan oldin imtihonga aloqador bo'lmagan barcha kompyuter ilovalari va dasturlari yopilishi kerak.

3. Abweichend von 2.2 (Ablauf) gilt:

3.1 Die Prüfungsteilnehmenden sorgen dafür, dass sie die Prüfung in einem störungsfreien Raum mit adäquaten Licht- und Sitzverhältnissen ablegen. Räume mit mehr als einer Tür oder mit großen Glasfronten sind nicht erlaubt.

3.2 Während der Prüfung befinden sich außer dem/der Prüfungsteilnehmenden keine weiteren Personen oder Haustiere im Raum, Tür und Fenster werden geschlossen.

3.3 Zur Sicherstellung, dass während der Prüfung keine weiteren Personen den Raum betreten, müssen Arbeitsplatz und Webcam so ausgerichtet werden, dass der/die Prüfungsteilnehmende und die Tür permanent im Bild sind.

3.4 Der Prüfungsplatz wird so eingerichtet, dass die Arbeitsfläche leer ist und sich außer dem Desktop-Computer mit Monitor oder Laptop, Lichtbildausweis, ggf. Tastatur und Lautsprecher keine weiteren Gegenstände auf dem Tisch befinden. Wenn der Arbeitstisch über Schubladen verfügt, müssen diese vor der Prüfung leergeräumt werden. Hierzu erfolgt eine Kontrolle.

3.5 Zur Überprüfung der Einhaltung der Prüfungsbedingungen führt die Prüfungsaufsicht zusammen mit dem/der Prüfungsteilnehmenden eine Überprüfung des Raums per Webcam durch.

3.6 Der/Die Prüfungsteilnehmende muss während der ganzen Prüfung erkennbar sein. Das Gesicht und die Ohren des/der Prüfungsteilnehmenden müssen während der gesamten Prüfung sichtbar sein und dürfen nicht verdeckt werden.

3.7 Smartwatches, analoge Uhren, Schmuckstücke im Gesichtsbereich, Haarschmuck sowie gesichtsnahe Accessoires, wie z.B. Tücher, Schals, Krawatten, dürfen während der Prüfung nicht getragen werden, um zu gewährleisten, dass keine unerlaubten technischen Hilfsmittel benutzt werden.

3.8 Mobiltelefone und weitere mobile Endgeräte müssen nachweislich ausgeschaltet und außerhalb der Reichweite des/der Prüfungsteilnehmenden deponiert werden.

3. 2.2 (Imtihon jarayoni)dagi o'zgarishlar:

3.1. Imtihon topshiruvchilar imtihonni hech kim halaqit bermaydigan, yorug' va o'tirish uchun qulay muhitda topshirishlariga ishonch hosil qilishlari kerak. Bir nechta eshikli yoki katta derazli xonalarda imtihon topshirish mumkin emas.

3.2. Imtihon vaqtida xonada imtihon topshiruvchidan boshqa hech qanday shaxs yoki uy hayvonlari yo'q, eshik va derazalar esa yopiq holatda bo'lishi kerak.

3.3 Imtihon vaqtida ruxsat etilmagan shaxslar xonaga kirmasligini ta'minlash uchun imtihon topshirish joyi va veb-kamera imtihon topshiruvchi va eshik doimiy ravishda ko'rinib turadigan tarzda joylashtirilishi kerak.

3.4 Imtihon topshiruvchining stoli ustida monitorli statsionar kompyuter yoki noutbuk, klaviatura va ovoz kuchaytiruvchi vosita, shuningdek, shaxsni tasdiqlovchi foto suratli guvohnomadan boshqa obyektlar bo'lmasligi kerak. Agar stolda tortmalar bo'lsa, ular imtihondan oldin bo'shatilishi kerak. Tortmalar bo'shligi imtihondan oldin tekshiriladi.

3.5 Imtihonga qo'yiladigan talablarga muvofiqqligini tekshirish uchun imtihon nazoratchisi imtihon topshiruvchi bilan birgalikda veb-kamera orqali xonani tekshiradi.

3.6 Imtihon topshiruvchi imtihon yakunigacha nazoratchilar ko'z o'ngida bo'lishi kerak. Imtihon topshiruvchining yuzi va quloqlari imtihon davomida doimiy ko'rinib turishi va berkitilmasligi kerak.

3.7 Imtihon vaqtida ruxsat etilmagan texnik vositalardan foydalanishning oldini olish uchun aqlli soatlar, analog soatlar, yuz taqinchoqlari, soch taqinchoqlari va ro'mol, sharf, bo'yinbog' kabi yuz qismiga yaqin joylashgan aksessuarlar taqish taqiqlanadi.

3.8 Mobil telefonlar va boshqa mobil qurilmalar imtihon oluvchi nazoratida o'chirilishi va imtihon topshiruvchining qo'li yetmaydigan joyda saqlanishi kerak.

3.9 Prüfungsteilnehmende verpflichten sich, die vorbereitenden Schritte zur Prüfungsdurchführung sowie die Hinweise der Prüfungsaufsicht zu beachten und Anweisungen umzusetzen.

3.10 Der schriftliche Teil der Online-Deutschprüfung findet als Einzelprüfung statt. Der Prüfungsteil/Das Modul SPRECHEN wird abhängig von den Gegebenheiten am Prüfungszentrum entweder als Einzel- oder Paarprüfung durchgeführt.

Die zeitliche Organisation der Prüfung erfolgt gemäß 1.4.: Falls während der schriftlichen Prüfung ein Toilettengang erforderlich ist, wird der Zeitplan beibehalten und die Prüfungszeit nicht verlängert.

4. Abweichend von § 4 und § 5 (Bewertung) gilt:

Die Aufgaben mit vorgegebenen Antwortmöglichkeiten in den Modulen/Prüfungsteilen LESEN und HÖREN werden technisch automatisiert durch die Testplattform bewertet. Bei den Modulen/Prüfungsteilen SCHREIBEN und SPRECHEN werden die Bewertungen durch zwei voneinander unabhängig Prüfende/Bewertende direkt auf der Testplattform eingegeben. Die Bewertungskriterien entsprechen den Bewertungskriterien der papierbasierten Prüfung (siehe dazu § 4 und § 5). Die Prüfenden und Bewertenden authentifizieren sich auf der Testplattform durch individuelle Login-Daten, daher entfällt die Notwendigkeit einer Unterschrift.

3.9 Imtihan topshiruvchilar imtihonga tayyorgarlik chora-tadbirlariga, shuningdek imtihan nazoratchisining ko'rsatmalariga rioya qilish va ularni bajarish majburiyatini oladilar.

3.10 Nemis tilidan onlayn imtihonning yozma qismi yakka tartibdagi imtihan shaklida o'tkaziladi. OG'ZAKI NUTQ imtihan qismi/moduli imtihan markazidagi sharoitdan kelib chiqib yakka tartibda yoki juftlikdagi imtihan shaklida o'tkaziladi.

Imtihonning vaqt jihatidan tashkil etilishi 1.4-bandga muvofiq belgilanadi. Yozma imtihan davomida hojatxonaga chiqish zarurati tug'ilganda, belgilangan vaqt rejasi o'zgartirilmaydi va imtihan vaqti uzaytirilmaydi.

4. § 4 va § 5 (Baholash) dagi o'zgarishlar:

O'QISH va TINGLASH modullari/imtihan qismlarida javob variantlari berilgan topshiriqlar, test platformasi tomonidan texnik jihatdan avtomatlashtirilgan tarzda baholanadi. YOZMA NUTQ va OG'ZAKI NUTQ modullari/imtihan qismlarida baholar to'g'ridan-to'g'ri test platformasiga ikkita mustaqil imtihan oluvchi va baholovchi mutaxassis tomonidan kiritiladi. Baholash mezonlari qog'oz shaklida o'tkaziladigan imtihonning baholash mezonlariga mos keladi (§ 4 va § 5ga qarang). Imtihan oluvchilar va baholovchilar shaxsiy kirish ma'lumotlari yordamida test platformasida autentifikatsiya qilinadilar, shu sababdan ulardan imzo talab qilinmaydi.